

## DARAXT NOMLARI BILAN BOG'LIQ O'XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Xudayarova Solihaposhsho**

O'zDJTU «O'zbek tili va adabiyoti» kafedrası o'qituvchisi  
Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10405285>

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, lingvomadaniy tadqiq, fitonim, fitonim komponentli o'xshatishlar

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi daraxt komponentli o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Insonning tashqi ko'rinishi, holatini ifodalashda daraxt komponentli o'xshatishlarning ahamiyati ochib beriladi,

**Keywords:** lingvoculturology, linguocultural research, phytonym, phytonym component analogies.

**Annotation.** This article discusses the peculiarities of tree component similarities in Uzbek. The article reveals the significance of the appearance and condition of a person by expressing the analogies of the tree component.

Til millat, jamiyat ko'zgusi. Xalq ma'naviyatining asosi. Har qanday tilda o'sha xalqning madaniyati, hayot tarzi, urf-odat an'analari aks etadi. Tilshunoslikning antroposentrik yo'nalishida inson tafakkurida hosil bo'ladigan tushunchalar nutqda ma'lum lisoniy birliklar sifatida verballashar ekan, ular o'zida o'sha xalqning lokatsiyasi, tabiati haqidagina emas, balki turmush tarzi, qarashlari, e'tiqodi haqida ham ma'lumot beradi. Tilning jozibadorligi undagi qiyoslash, o'xshatish va chog'ishtirishlar sabab yanada sayqallanib boraveradi. Madaniyat borliqni aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, ushbu jarayon natijasi esa xalq ongida milliylikning ifodalanishidir. Lingvokulturologiya esa ana shu milliymentallikni aks ettiruvchi birliklarni o'rganuvchi sohadir.

Xalq hayoti, madaniyati, tili va adabiyoti hamisha bir birini to'ldirib, boyitib kelgan. O'zbek tili o'zining o'xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Nutqimizda daraxt bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlar bisyor. Bunday o'xshatishlar til go'zalligini, tasvirlanuvchi obyekt aniqligini ta'minlaydi. Biz kundalik hayotimizda daraxt bilan bog'liq ko'plab ibora, o'xshatish va maqol darajasiga ko'tarilgan hikmatlarga duch kelamiz. Masalan, xalqimizda daraxt qirq xazinaning biri sifatida qaraladi, inson umri tug'ilgandan to qarilik davrigacha daraxt timsolida gavdalanitiriladi. Inson go'dakligida nihol yoxud daraxt mevasiga qiyoslansa, qarigani, umri uzayib, yoshi ulug'lashgani sari chinor yoki tutga mengzaladi. Qarangki, inson hayoti to'rt faslga o'xshatilar ekan, unda o'xshatish asosi daraxt hisoblanadi.

Ajdodlarimiz qadim-qadimdan soʻz kuchiga, jismning qudratiga alohida eʼtibor qaratganlar. Xalq ogʻzaki ijodida har bir tushuncha, zarradan to koinotgacha maʼlum ramziy maʼno tashiydi. Folklorshunos olim Shomirza Turdimovning taʼkidlashicha, daraxtlar ham maʼlum ramziy maʼnoga ega.

Tut – balogʻat, orzudagi juftlik ramzi.

Chinor – uzoq umr, chinorday boʻy, goʻzallik ramzi.

Terak – yigit, er, oila boshligʻi ramziy maʼnolarini ifodalaydi. Terak obrazi “qush” sifati bilan kelgan oʻrinlarda ota-ona, er-xotin maʼnolarida qoʻllaniladi.

Tol – oshiq yigit, erkak kishi tub poetik maʼnolarida keladi. Xalq qoʻshiqlarida tol bargi “tolim-tolim” deya taʼriflanishi, yigitning xushsurat, kelishgan, yoqimtoy ekanligini bildiradi. Tol bargini egib olmoq – oshiqni oʻziga boʻysundurmoq yoki turmushga chiqmoq, erga tegmoq maʼnosini beradi. Oraliqqa tol ekib ramziy birikmasi – lirik qahramonning el nazaridan yashirin xatti-harakatlarini ifodalaydi<sup>1</sup>.

Ajdodlarimiz qadim-qadimdan soʻz kuchiga, jismning qudratiga alohida eʼtibor qaratganlar. Xalq ogʻzaki ijodida har bir tushuncha, zarradan to koinotgacha maʼlum ramziy maʼno tashiydi. Folklorshunos olim Shomirza Turdimovning taʼkidlashicha, daraxtlar ham maʼlum ramziy maʼnoga ega.

Tut – balogʻat, orzudagi juftlik ramzi.

Chinor – uzoq umr, chinorday boʻy, goʻzallik ramzi.

Terak – yigit, er, oila boshligʻi ramziy maʼnolarini ifodalaydi. Terak obrazi “qush” sifati bilan kelgan oʻrinlarda ota-ona, er-xotin maʼnolarida qoʻllaniladi.

Tol – oshiq yigit, erkak kishi tub poetik maʼnolarida keladi. Xalq qoʻshiqlarida tol bargi “tolim-tolim” deya taʼriflanishi, yigitning xushsurat, kelishgan, yoqimtoy ekanligini bildiradi. Tol bargini egib olmoq – oshiqni oʻziga boʻysundurmoq yoki turmushga chiqmoq, erga tegmoq maʼnosini beradi. Oraliqqa tol ekib ramziy birikmasi – lirik qahramonning el nazaridan yashirin xatti-harakatlarini ifodalaydi<sup>2</sup>. Xalq ogʻzaki ijodidagi bunday ramzlar anʼanaviy boʻlib, tarixan mifologiyaga, xalqning urf-odatlarini, madaniyatiga borib taqaladi.

Fitonimlar orasida daraxt va uning turlari bilan bogʻliq oʻxshatishlar salmoqli oʻrinni egallaydi. N.Mahmudov, D.Xudoyberganovlar tomonidan tuzilgan “Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati” da daraxt va uning turlari, qismlari bilan bogʻliq oʻxshatishlar sifatida sarvday, terakday, tolday, chinorday, shamshodday, sambitday kabilar sanab oʻtilgan.

<sup>1</sup> Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.127-128.

<sup>2</sup> Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.127-128.



Sarvday (kabi, misoli) – Tik, adil, kelishgan. Odamning qaddi-qomati haqida<sup>3</sup>. Uning sarvdek tik qomati yigitni befarq qoldirmadi. (M. Hazratkulov. Sulton bilan malika).

O'lar bo'lsam, Sengina deb o'loyin,

Sarvday qomatingni quli bo'loyin (H. Xudoyberdieva)

Sarv daraxti tilga olinganda, hamisha inson tashqi ko'rinishi nazarda tutilgan. Badiiy asarlarda qahramon qaddi-qomatining naqadar raso, kelishgan ekanligini birgina shu so'z orqali ifodalash an'ana tusiga kirgan. Sarv ma'shuqa qomatining go'zalligi, qaddining tikligini tasvirlovchi muhim obraz sifatida e'tiborlidir. Sarv komponentli o'xshatishlar asosan mumtoz adabiyotda keng tarqalgan bo'lib, sarv kabi, sarvtek yoki sarvdek shakllarida uchraydi.

Sarv komponentli o'xshatishlarni izofali birikma shaklida ham uchratishimiz mumkin. Masalan, sarvi ozod, sarvi xiromon, sarvi ravon, sarvi ra'no, sarvi baland, sarvi gul, sarvi gulro', sarvi qad, qomati sarv, sarvi gulandon, sarvi guliston, sarvu sanubar, sarvi noz va hakazo. Xorazmiy "Muhabbatnoma"sidan olingan ushbu baytga e'tibor qiling:

Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,

Vafo qilg'on kishilarga, vafo qil (Xorazmiy).

Ushbu baytda mahbubaning bo'yi, qaddi tiklikda sarv va sanubar daraxtlariga qiyos qilinmoqda.

Nafaqat nazmda, balki, nasriy asarlarda ham sarv komponentli o'xshatishlar talaygina. Boshiga yuzi bilan qo'shib oq ipak ro'mol yopgan, qaddi sarvdek tik juvon kirdi (O.Yoqubov). Shu holda ichkaridan go'yo yuzi sut bilan sug'orilg'andek oq, qurulay ko'zi oysiz va bulutliq kechasidan ham qoraroq, qaddi sarv kabi mavzun, qora sochi taqimini o'pkan, ust-boshi Ipak va oltinlar bilan g'arq bir xonim xiromon chiqib keldi"( A.Qodiriy)

Inson qaddi-qomatining tikligi sarvdan tashqari shamshodga ham qiyoslanadi.

Shamshoddek – tik, kelishgan Asosan, odamning qaddi-qomati haqida<sup>4</sup>.

Tirikchilik?.. – Fozilbek shunday dedi-yu, tishi simillab og'rigan odamday aftini bujmaytirdi, ko'zini xiyol ochib, ro'parasida – rastaning u tomonida – shamshoddek qomatini tik tutib turgan juvonning paxtaday oq, buloq suvidek tiniq yuziga, bo'yniga... qirmizi olmadek yonog'iga razm soldi (X.Do'stmuhammad)

<sup>3</sup>Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.183.

<sup>4</sup>Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.261

Daraxt nomi bilan bog'liq o'xshatishlarni tahlil qilishda davom etamiz. Ular orasida terak komponentli o'xshatishlar ham mavjud bo'lib, bunday o'xshatishlar ham salbiy ham ijobiy ma'noni ifodalashi bilan xarakterlidir.

Terakday – baland, novcha, uzun. Ko'proq odamning bo'yi haqida<sup>5</sup>.

Qahramonlarning tashqi ko'rinishini tasvirlashda terak daraxtidan foydalanish juda ko'p ijodkorlar asarida uchraydi. Qahramon bo'yining uzunligini terakday uzun, terakday baland, terak kabi novcha kabi o'xshatishlar orqali ifodalashdan maqsad kitobxonga yana ham aniqroq tushuntirish, biroz bo'rttirish, personajning tashqi ko'rinishi haqida batafsil ma'lumot berishdir. O.Yoqubov o'zining "Ko'hna dunyo" nomli romanida Sulton Mahmud G'aznaviyni tasvirlar ekan ko'p o'rinlarda uni "ichini qurt yeb, qurib qolgan terakka" qiyoslaydi:

"Tuya junidan to'qilgan oq chakmon ichida uning qurigan terakday baland bo'y-basti yana ham balandroq ko'rinar, birdan charaqlab ketgan qisiq ko'zlarida, butun vajohatida ilgarigi kuch, ilgarigi iqtidor barq urar edi".

"Sultonning rang-ro'yi uncha o'zgarmasa ham, qurigan terakday qoqsuyak gavdasida qandaydir pinhoniy bir kuch, kishini tahlikaga solguvchi avvalgi shiddat paydo bo'lgan, kuni kechagina piligi pasaytirilgan chirog'day miltirab turgan qisiq ko'zlari bugun qayta chaqnaq charaqlab ketgandi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, daraxt bilan bog'liq o'xshatishlar xalq urf-odati, an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Insonlarni qiyoslashda daraxt turlari, mevali yoki mevasizligi, tashqi ko'rinishi, chidamliligi, uzoq umr ko'rishi asos qilib olinadi. Daraxtlar xalqimizda baraka, birdamlik, do'stlik, oila ramzi sifatida e'tirof etiladi. Sarv, shamshod kabi daraxtlar asosan mumtoz adabiyotda qo'llanilgan va ma'shuqaning qaddi-qomatini tasvirlagan. Chinor, terak, tol komponentli o'xshatishlar erkaklarning tashqi ko'rinishi, bo'y-bastini tasvirlab kelgan. Bundan tashqari, chinor sulola, avlodlarning har tarafga tarqab ketishi hamda uzoq umr ko'rish, mangulik ramzi sifatida ham e'tirof etilgan. Tut daraxti bilan bog'liq o'xshatishlardan inson ruhiy holati, kechinmalari, tashqi muhit tartibsizligini ifodalashda keng foydalanilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 3-сон. – Б.19-24.
- 2.Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори дисс.автореф. – Тошкент. 2020. 57 б
3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент. 2013.

<sup>5</sup>О'sha manba. – Б.210.

